



UDK: 94(575.1)“19”:070.1+327

Yunus SAFAROV,

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi kichik ilmiy xodimi

E-mail: yunusjonsafarov@gmail.com, ORCID: 0009-0001-0317-5549

O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti v.b E.Botirov taqrizi asosida

ENLIGHTENER SAYID RIZO ALIZODA’S PUBLICISTIC HERITAGE: A HISTORICAL AND POLITICAL ANALYSIS OF INTERNATIONAL RELATIONS ISSUES

Annotation

This article analyzes the coverage of international relations, geopolitical transformations that occurred within the system of international political relations in the early twentieth century, as well as political events in the Muslim East reflected in the journalistic heritage of the Jadid enlightener and publicist Sayid Rizo Alizoda. Based on historical sources, the study examines the author’s attitudes toward political processes in the Russian Empire, the Ottoman Empire, Iran, Afghanistan, and the Turkestan region as represented through the press. Furthermore, the article scientifically explores the interconnection between national awakening, reformist ideas, and social development with international political events in Sayid Rizo Alizoda’s publicistic views.

Key words: Sayid Rizo Alizoda, Jadidism, journalism, international relations, geopolitics, press, Turkestan, Ottoman Empire, enlightenment, political analysis.

ПРОСВЕТИТЕЛЬСКО-ПУБЛИЦИСТИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ САИДА РИЗО АЛИЗОДА: ИСТОРИКО-ПОЛИТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВОПРОСОВ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЙ

Аннотация

В данной статье анализируется освещение вопросов международных отношений, геополитических изменений, произошедших в системе международно-политических отношений начала XX века, а также политических событий, происходивших в мусульманском Востоке, в публицистическом наследии джадидского просветителя и публициста Саида Ризо Ализода. На основе исторических источников исследуется отношение автора к политическим процессам в Российской империи, Османском государстве, Иране, Афганистане и Туркестанском регионе, отражённое в периодической печати. Кроме того, с научной точки зрения освещается взаимосвязь вопросов национального пробуждения, реформаторства и общественного развития с международными политическими событиями в публицистических взглядах Саида Ризо Ализода.

Ключевые слова: Саид Ризо Ализода, джадидизм, публицистика, международные отношения, геополитика, периодическая печать, Туркестан, Османское государство, просветительство, политический анализ.

MA'RIFATPARVAR SAID RIZO ALIZODA PUBLITSISTIK MEROSIDA XALQARO MUNOSABATLAR MASALALARINING TARIXIY-SIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqolada jadid ma'rifatparvari va publitsist Sayid Rizo Alizodaning jurnalistik merosida xalqaro munosabatlar, XX asr boshlarida xalqaro siyosiy munosabatlar tizimida yuz bergan geosiyosiy o'zgarishlar hamda musulmon Sharqida kechgan siyosiy voqealarning yoritilishi tahlil qilingan. Muallifning matbuot orqali Rossiya imperiyasi, Usmoniylar davlati, Eron, Afg'oniston va Turkiston mintaqasidagi siyosiy jarayonlarga munosabati tarixiy manbalar asosida o'rganilgan. Shuningdek, uning publitsistik qarashlarida milliy uyg'onish, islohotchilik va jamiyat taraqqiyoti masalalarining xalqaro siyosiy voqealar bilan bog'liqligi ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: Said Rizo Alizoda, jadidchilik, publitsistika, xalqaro munosabatlar, geosiyosat, matbuot, Turkiston, Usmoniylar davlati, ma'rifatparvarlik, siyosiy tahlil.

Kirish. XX asr boshlari jahon tarixida keskin siyosiy o'zgarishlar, mustamlakachilik siyosati, imperialistik raqobat va milliy ozodlik harakatlari kuchaygan murakkab davr sifatida namoyon bo'ldi. Ayniqsa, Birinchi jahon urushi (1914-1918) natijasida xalqaro siyosiy munosabatlar tizimida jiddiy geosiyosiy o'zgarishlar yuz berdi. Yirik imperiyalar hisoblangan Rossiya, Usmoniylar, Avstro-Vengriya va Germaniya imperiyalarining zaiflashuvi natijasida parchalanishi jahon siyosiy xaritasining qayta shakllanishiga olib keldi. Bu jarayonlar mustamlaka hududlarida yashovchi xalqlarning siyosiy ongi, milliy o'zlikni anglash va ozodlik g'oyalarining kuchayishiga ham katta ta'sir ko'rsatdi.

Turkiston o'lkasida ham mazkur siyosiy jarayonlar jadidchilik harakatining faollashuviga turtki berdi. Jadid ziyolilari xalqni ma'rifatli qilish, milliy uyg'onish g'oyalarini targ'ib etish bilan birga, jahonda kechayotgan siyosiy voqealarga ham befarq bo'lmadilar. Ular matbuot orqali

xalqaro munosabatlar, mustamlakachilik siyosati, musulmon Sharqidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar hamda Yevropa davlatlarining geosiyosiy manfaatlari haqida fikr-mulohazalar bildirib bordilar.

Shunday ma'rifatparvar ziyolilardan biri Said Rizo Alizoda bo'lib, u o'zining publitsistik faoliyati orqali Turkiston matbuotida xalqaro munosabatlar masalalarini yoritishga alohida e'tibor qaratgan. Muallif o'z maqolalarida Rossiya imperiyasi, Angliya, Fransiya, Usmoniylar davlati, Eron, Misr, Polsha va Afg'onistonda kechayotgan siyosiy jarayonlarni tahlil qilib, ularning Turkiston hayotiga ta'sirini baholashga harakat qilgan. Ayniqsa, uning mustamlakachilik siyosatiga qarshi qarashlari, milliy ozodlik va mustaqillik g'oyalarini ilgari surishi jadid publitsistikasining muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi Said Rizo Alizoda publitsistik merosida xalqaro munosabatlar masalalarining

yoritilishi, uning geosiyosiy jarayonlarga munosabati hamda musulmon Sharqidagi siyosiy voqealar haqidagi qarashlarini tarixiy-siyosiy jihatdan tahlil qilishdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili. Said Rizo Alizoda hayoti va ijodiga bag'ishlangan tadqiqotlar asosan jadidchilik harakati, milliy matbuot tarixi va ma'rifatparvarlik faoliyati doirasida o'rganilgan. Jumladan, Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy kabi jadid ziyolilari qatorida Said Rizo Alizodaning ham milliy matbuot rivojida o'rni haqida bir qator ilmiy ishlar mavjud.

Ta'kidlash lozimki, Said Rizo Alizoda hayoti, ijodi va publitsistikasiga bag'ishlab Y.Aliasqarov, S.Otabullayev, A.Muxtarov, X.Irfon, M. Muqimov, A. Umnyakov, V. Larsev, H. Normurodov, Y. Abdullayev, E.Xo'jayev, H.Ne'mat, X.Mirzozoda, U.Qodir, N.Rahmat, A.Ahmedov, A.Hayitov, M.Yo'ldoshev, A.Pavlenko, T.Shomurodov, S.Hayitov, S.Umirov, kabi olimlar tomonidan ko'plab ilmiy maqolalar chop etilgan bo'lsa-da, ularni o'rganish jarayonida shu narsa aniqlandiki, ushbu maqolalar faqatgina olim haqida birlamchi ma'lumotlar berilgan.

Xorijiy tadqiqotlarda ham jadidchilik harakati va musulmon Sharqidagi modernizatsiya jarayonlari keng tahlil qilingan. Ayniqsa, Adib Xolid, Edvard Lazzarini kabi olimlarning asarlarida [1] Turkiston jadidlarining siyosiy qarashlari, milliy matbuot orqali jamiyatni isloh qilishga bo'lgan intilishlari yoritilgan. Biroq, yuqoridagi mazkur tadqiqotlarda Said Rizo Alizodaning xalqaro munosabatlarga oid publitsistik maqolalari maxsus tahlil qilinmagan.

Tahlil va natijalar. Said Rizo Alizodaning Rossiya, Ozarbayjon, Afg'oniston, Eron, Hindiston, Turkiya va Misr ijodkor ziyolilari bilan o'rnatilgan keng ko'lamli aloqalari, matbuotdagi faol ishtirok hamda ta'lim muassasalaridagi pedagogik mehnat natijasida uning nomi nafaqat Markaziy Osiyoda, balki undan tashqarida ham keng tanilgan ma'rifatparvar ziyoli sifatida tarixda o'chmas iz qoldirdi. Bu vaqtda Said Rizo Alizoda "Nizomnoma", "Risalat ul-ittiqodiya" kabi risolalari bilan tanilgan, pedagog sifatida jadid maktablari uchun "Ilmi hisob" darsligini tuzgan edi. Gazeta va jurnallardagi maqolalarida "Bahul", "Zombur", "Korgar", "Sitamdiya", "Mullo Jumbul", "Shapoloq" hamda "Bog'ishamoliy" kabi taxalluslar bilan chop etilar edi [2].

E'tirof etish lozimki, Said Rizo Alizodaning publitsistik faoliyati uning ko'p qirrali ijodiy merosining mustaqil va o'ziga xos bir qirrasini sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'rifatparvar olim yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlari, milliy uyg'onish harakatining tobora avj olishi va matbuotning jamoatchilik ongini shakllantiruvchi kuch sifatida maydonga chiqayotgan bir vaziyatda Said Rizo Alizoda xalqning ham qalami, ham ovozi sifatida faollashdi. Said Rizo Alizoda publitsistik faoliyatida xalqaro munosabatlar masalalariga alohida e'tibor qaratgan jadid ziyolilardan biri hisoblanadi. U o'z maqolalari orqali Birinchi jahon urushi, Yevropa davlatlari va ularning mustamlakachilik siyosati, Usmoniylar davlatining parchalanishi, Sovet Rossiyasining shakllanishi hamda musulmon Sharqidagi siyosiy jarayonlarga munosabat bildirgan.

Sayid Rizo Alizoda xorijiy mamlakatlar ayniqsa Yevropa davlatlari siyosatiga doir xabarlarni ham yoritgan. Xususan, 1924-yilda chop etgan maqolasida Fransiya ahqol haqida tanishtirib, ichki siyosatini muhokama qilgan. "SHo'rolar ittifoqig'a eng qiziq dushman bo'lg'on Fransiya jumhuriyat raisi Meliran va xukumatining vakili bosh vazir Puanqori xukumat boshidan tushdi. Ularning talonchilik siyosatlarini o'z boshlarig'a tegdi. Yaqinda bo'lg'on Fransiya parlamentiga saylovlarda Meliran va Puanqorining dushmani bo'lg'on "sul" otalg'on fransuz boylar firqasi g'alaba endi ishchi va dehqonlar boylarning faqat so'zidagina sul bo'lishlarini yaxshi bo'lardurlar. Puanqori ochiq tulon yili bilan Shurolar Ittifoqi va mag'lub Germaniya xalqining bor qonini

surib olmoq fikrida edi. Rusiya ishchi dehqonlari o'zlarining mamlakatlarini quruq etdilar" – deya, Fransiya bo'layotgan siyosiy jarayonlarni oddiy xabar tarzida emas, balki siyosiy jurnalistik ko'zi bilan yoritadi [3].

Muallifning maqolalarida Angliya, Fransiya va Rossiya kabi yirik davlatlarning Sharq mamlakatlariga nisbatan yuritgan imperialistik siyosati tanqidiy ruhda yoritilgan. Ayniqsa, Britaniyaning Eron, Afg'oniston va Turkistonga nisbatan olib borgan geosiyosiy harakatlari haqidagi fikrlari uning xalqaro munosabatlarni chuqur anglaganini ko'rsatadi. U mustamlakachilik siyosati xalqlarni iqtisodiy va siyosiy jihatdan qaram holatga tushirishini ta'kidlab, milliy ozodlik g'oyalari qo'llab-quvvatlaydi.

Said Rizo Alizoda inglizlarning ayniqsa Sharqqa mustamlakachilik siyosati haqida shunday yozadi: "Mana ingliz tog'amiznichi, xoli ham buyni shundaydir. Oning otasini kuydurgan olamon, aybini bixitgan olamon, boshiga dona choxgan olamon, xolisa etmish ikki balog'a giriftor qilg'on olamon; lekin ingliz tog'amiz olomon bobog'a aliq lom demag'a jurat qila olmag'oni uchun istaydurkim qusurini qishi botadurg'on boshqa kishidan olsun, munday kishi esa oning uylovicha Eron va Turkistondir". Birinchi jahon urushida mag'lub bo'lgan Rossiya imperiyasi juda katta harbiy talafot ko'rgan bo'lib yangidan g'arb davlatlari bilan harbiy tuqnashuvlarga ju'rat etmas edi. Bunday qulay vaziyatdan foydalangan hukmron doiralari o'z imperialistik ambitsiyalarni Eron va Turkistonda ham o'z ta'sir doiralarga olishga harakat qilishga urinishdi.

Turkistonning tabiiy boyliklari va strategik ahamiyati asrlar davomida yirik davlatlar hamda mustamlakachilik siyosatini yuritgan kuchlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Said Rizo Alizoda o'z publitsistik qarashlarida mazkur masalaga keskin munosabat bildirib, Turkiston xalqini tashqi bosqin va mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashishga chaqirgan. Muallif o'z fikrini quyidagicha ifoda etadi: "Bizning Turkistonimiz ham juda keng emas, ular qani bir kelishsin kunini kursin, biz shunday javob berib uraylikkim parcha-parcha bo'lib chiqqan joyiga kirsun" [4]. Mazkur fikrlardan muallifning milliy ozodlik va vatan himoyasi g'oyalari qat'iy qo'llab-quvvatlagani ko'rinadi.

Shu bilan birga, mazkur maqola yozilgan davrda Oktabr to'ntarishidan keyingi siyosiy muhit hali to'liq shakllanmagan bo'lib, bolshevik hukumati matbuot ustidan qat'iy senzura tizimini to'liq o'rnatib ulgurmagan edi. Bu esa mahalliy matbuot va taraqqiyparvar ziyolilarga nisbatan muayyan darajada erkin fikr bildirish imkoniyatini saqlab qolgan. Bolsheviklar esa dastlabki bosqichda mahalliy jadid va taraqqiyparvar kuchlardan o'z siyosiy manfaatlarini yo'lida foydalanishga intilgan. Chunki yangi sovet hokimiyati uchun xalq ishonchini qozonish va xalqaro maydonga o'z siyosiy mavqei mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etar edi. Shu nuqtai nazardan, mahalliy ma'rifatparvar ziyolilar va ularning publitsistik faoliyati bolsheviklar uchun muayyan siyosiy vosita vazifasini ham bajargan.

Said Rizo Alizoda maqolalarida Turkiya va Misrdagi siyosiy voqealar ham muhim o'rin egallaydi. U Usmoniylar davlatining Birinchi jahon urushidagi mag'lubiyati va Sevr shartnomasi natijasida yuzaga kelgan og'ir siyosiy vaziyatni tahlil qilib beradi. Turkiya va Yunoniston urushiga bag'ishlangan "Turkiya hamda yunon muhorabasi" nomli maqolasida "1921 yil 16 iyulda turklar Mustafa Kamol posho boshchiligida butun front bo'ylab yunonlarga qarshi qat'iy va umumiy harakatlar boshlag'onlar. Shul vaqtda turklar dushmonning 3-4 barobar ko'p bo'lg'on kuchlariga qarshi qat'iyat bilan kurashib, ular hujumini to'xtaturlar. Yashasin o'zlarining qahramonlik va g'ayratlari orqasida Yevropa tahliskasiga (Yunoniston va Angliyaga) qarshi turib harb maydonida umumiy g'alaba qozonib, o'z vatanlarini mudofaa

qilg'on turk askarlari!"– deya Mustafu Kamol posho rahbarligidagi milliy ozodlik harakatini ijobiy baholaydi [5].

Shuningdek, Said Rizo Alizoda Misrda Zag'lul posho boshchiligidagi ingliz mustamlakachiligiga qarshi olib borilgan milliy-ozodlik harakatini ham alohida diqqat bilan kuzatib borgan. U o'z maqolalarida Misr xalqining mustaqillik uchun kurashini ozodlik va milliy uyg'onish g'oyalari bilan bog'liq holda talqin qiladi. Xususan, Misrdagi siyosiy vaziyat haqida muallif shunday yozadi: "Ushbu yaqin kunlarda inglizlar ustamalik iqdoriga bir necha zur zarba urildi. Un yildan beri ulug' Britaniya mustamlakasi qatoriga utub, Lundun tomonidan idora etiladurg'on Misr mamlakatini, emdi anglichanlarning qullig'idan o'zini qutqardi" [6]. Mazkur fikrlardan ko'rinib turibdiki, XX asrning birinchi choragida Misrda ingliz mustamlakachiligiga qarshi jiddiy siyosiy qarshilik harakati shakllangan bo'lib, muallif mazkur voqealarni milliy ozodlik va mustaqillik uchun kurash sifatida baholaydi.

Muallifning Polsha haqidagi qarashlari ham diqqatga sazovordir. U Polsha davlatining qayta tiklanishi, Fransiya ta'siri ostidagi siyosiy jarayonlar hamda Yevropadagi kuchlar muvozanati xususida tahliliy fikrlar yuritadi. Bu esa Said Rizo Alizodaning nafaqat Sharq, balki Yevropa siyosiy jarayonlarini ham diqqat bilan kuzatganini ko'rsatadi. Xususan, u Polshaning xalqaro siyosiy maydondagi o'rni va g'arb davlatlari ta'siriga munosabat bildirib: "Ko'pdan beri Fransiya jahongirlari qulida qug'irchoq bo'lg'on Polsha bizning imonsiz dushmanimizdur. Ilgarida avboshlar uyasi bo'lg'on Polsha xozirda inqilobiy Germaniya bilan bizning oramizda tusuq bo'lub turadur", – deya yozadi [7]. Said Rizo Alizoda fikricha, mustaqil Polsha tashqi siyosatda ayniqsa Fransiya ta'siri ostida qolgan davlat sifatida shakllangan bo'lib, u bu haqda: "Shunday etib mustaqil Polsha ittifoqchilar ayniqsa Fransiya sarmoyasi quyiladi va farmanbardor bir elat vazifasini utaydur", – deya munosabat bildiradi [8]. Shu bilan birga, muallif Polsha davlatining shakllanish jarayonini Oktabr to'ntarishi bilan bog'lab, "Polsha Chor Rossiyasi mulkudur va boylari qulidan ozod bulushi faqat ulug' oktabr inqilobidan keyin vujudga chiqdi", – deya ta'kidlaydi. Muallif ushbu siyosiy jarayonlarni tahlil qilar ekan, Polshadagi ijtimoiy ahvol ham og'irligicha qolganini, oddiy xalq hayotida keskin o'zgarishlar yuz bermaganini qayd etadi. Uning qarashlarida

Polsha yirik davlatlar manfaatlari to'qnashgan geosiyosiy hudud sifatida talqin qilinib, mazkur mamlakat tashqi kuchlar ta'sirida siyosiy va iqtisodiy qaram holatda saqlab turilgani ta'kidlanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Said Rizo Alizoda publitsistikasida xalqaro munosabatlar masalalari oddiy axborot sifatida emas, balki siyosiy-tahliliy va mafkuraviy nuqtai nazardan yoritilgan. Uning maqolalarida mustamlakachilikka qarshi kurash, milliy ozodlik, siyosiy mustaqillik va jamiyat taraqqiyoti g'oyalari ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Sayid Rizo Alizoda jadid matbuotining yirik namoyondalaridan biri sifatida XX asr boshlaridagi xalqaro siyosiy jarayonlarni yoritishda muhim o'rin tutgan ma'rifatparvar publitsist hisoblanadi. Uning publitsistik merosida Birinchi jahon urushi, mustamlakachilik siyosati, Usmoniylar davlatining parchalanishi, Yevropa davlatlarining geosiyosiy raqobati hamda musulmon Sharqida kechgan milliy-ozodlik harakatlari keng yoritilgan. Ayniqsa, muallifning Angliya, Fransiya va Rossiya kabi davlatlarning Sharq mamlakatlariga nisbatan olib borgan imperialistik siyosatiga tanqidiy munosabati uning xalqaro munosabatlar masalalarini chuqur anglaganini ko'rsatadi.

Sayid Rizo Alizoda publitsistikasida Turkiya, Misr, Eron, Afg'oniston va Polshadagi siyosiy jarayonlar tahlili orqali mustaqillik, milliy uyg'onish va ozodlik g'oyalari ilgari surilgan. Muallif xalqaro voqealarni oddiy axborot sifatida emas, balki siyosiy-tahliliy hamda mafkuraviy nuqtai nazardan baholab, Turkiston xalqining siyosiy ongi va milliy tafakkurini shakllantirishga xizmat qilgan. Shu jihatdan, uning maqolalari nafaqat jadid matbuoti tarixi, balki xalqaro munosabatlar, siyosiy publitsistika va milliy siyosiy tafakkur tarixini o'rganishda muhim manba vazifasini bajaradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Sayid Rizo Alizoda o'z davridagi global siyosiy jarayonlarni diqqat bilan kuzatgan, ularni Turkiston manfaatlari nuqtai nazaridan tahlil qilishga harakat qilgan hamda mustamlakachilikka qarshi kurash g'oyalarini targ'ib etgan. Shu sababli uning publitsistik merosini zamonaviy tarixshunoslik, xalqaro munosabatlar va jadidchilik tarixi kontekstida kompleks o'rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1998; Lazzarini, Edward J, "Jadidism, Modernity, and Islamic Communities of Imperial Russia" (19 July 2023), in David Ludden (ed.), Oxford Research Encyclopedia of Asian History (New York, NY, online edn, Oxford Academic, 27 Feb. 2017).
2. Said Rizo Alizoda abadiyati. – Toshkent: "Sharq", 2017. – B. 75-76.
3. S.A. (Sayid Rizo Alizoda) Fransiyaning yangi hukumati // "Zarafshon" gazetasi 1924-yil, 159-son.
4. Zanbur. (Said Rizo Alizoda) Shapaloq // "Mehnatkashlar tovushi" gazetasi 1918-yil, 4-son.
5. Ziyo Usmoniy (Said Rizo Alizoda). Turkiya hamda yunon muhorabasi // Buxoro axbori, 1921-yil, 50-son.
6. Said Rizo Alizoda. Misr millatchilar g'alabasi // "Zarafshon" gazetasi 1924-yil, 144-son.
7. Said Rizo Alizoda. Polshag'a diqqat // Zarafshon, 1923-yil, 89-son.
8. Said Rizo Alizoda. Mustaqil Polsha qanday? // Zarafshon, 1923-yil, 91-son.